



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna, Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
Pulatova Dilfuza Baxramovna	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
Saidova Sumbuloy Otabayevna	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
Xamidova Zaynura Ramazonovna	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
Yunusova Dildora Hamrakulovna	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
Kasimova Xulkar Atabayevna	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi	

IJTIMOY QO'LLAB- QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVR AYOLLARIDA ONALIKDAN MAMNUNLIK BILAN BOG'LIQLIGI

Kalandarova Madina Baxadirovna

Ma'mun universiteti, Psixologiya kafedrası professori v.b.,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada tug'ruqdan keyingi davr ayollarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va onalikdan mamnunlik o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan tahlil qilindi. MSPSS va E. I. Zaxarova so'rovnomasi asosida olingan natijalar Spearman korrelyatsiyasi yordamida baholanib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash onalikdan mamnunlikning muhim psixologik omili ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tug'ruqdan keyingi davr, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalikdan mamnunlik, perinatal psixologiya.

Abstract: This article empirically examines the relationship between perceived social support and maternal satisfaction among postpartum women. Data obtained using the MSPSS and E. I. Zakharova's Maternal Satisfaction Questionnaire were analyzed through Spearman's correlation, demonstrating that social support is a significant psychological factor associated with maternal satisfaction during the postpartum period.

Key words: postpartum period, social support, maternal satisfaction, perinatal psychology.

Аннотация: В статье эмпирически исследована взаимосвязь между социальной поддержкой и удовлетворённостью материнством у женщин в послеродовом периоде. С использованием шкалы MSPSS и опросника Е. И. Захаровой результаты были проанализированы методом корреляции Спирмена, подтвердив значимую роль социальной поддержки как важного психологического фактора удовлетворённости материнством.

Ключевые слова: послеродовой период, социальная поддержка, удовлетворённость материнством, перинатальная психология.

KIRISH

Bugungi kunda onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ruqdan keyingi davr ayollarining ruhiy salomatligini saqlash hamda ularning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash sog'liqni saqlash va psixologiya fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tug'ruqdan keyingi davr ayol hayotidagi eng murakkab biopsixosozial bosqichlardan biri bo'lib, ushbu davrda nafaqat fiziologik, balki emotsional, ijtimoiy va psixologik o'zgarishlar ham kuzatiladi. Mazkur o'zgarishlar ayolning onalik rolini qabul qilishi, bola bilan emotsional munosabatlarni shakllantirishi hamda onalikdan mamnunlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda onalikdan mamnunlik ayolning psixologik farovonligi, ota-onalik kompetentligi va bola bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirishning muhim indikatori sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar onalikdan mamnunlikning shakllanishida biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, oiladagi psixologik iqlim va yaqin insonlarning qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, turmush o'rtog'i, oila a'zolari va do'stlar tomonidan ko'rsatiladigan emotsional hamda instrumental yordam ayolning yangi ijtimoiy rolga moslashuvini yengillashtiradi va onalik tajribasining ijobiy kechishiga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, mamlakatimizda tug'ruqdan keyingi davr ayollarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning onalikdan mamnunlikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tug'ruqdan keyingi davr ayollarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va onalikdan mamnunlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik jihatdan aniqlash hamda ularning psixologik mazmunini ilmiy asoslashdan iborat. Olingan natijalar perinatal psixologik xizmatlarni takomillashtirish, onalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot biopsixososial va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalik identifikatsiyasi va onalikdan mamnunlikka oid zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni baholashda G. Zimet, N. Dahlem, S. Zimet va G. Farley (1988) tomonidan ishlab chiqilgan Multidimensional Scale of Perceived Social Support (MSPSS) metodikasiga tayanildi. Mualliflar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni oila, do'stlar va boshqa muhim shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan yordam sifatida izohlaydilar hamda mazkur resurs shaxsning psixologik moslashuvi va stressga chidamliligini oshirishini ta'kidlaydilar ^[1].

Onalikdan mamnunlikni baholashda E. I. Zaxarova tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnomadan foydalanildi. Ushbu metodika onalikni faqat biologik hodisa sifatida emas, balki shaxsning bola bilan munosabati, onalik vazifalarini bajarishi, onalik rolini qabul qilishi hamda yaqinlar bilan munosabatlardan qoniqishini aks ettiruvchi murakkab psixologik konstrukt sifatida baholash imkonini beradi (Zaxarova, 2012) ^[4].

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ruhiy salomatlikdagi ahamiyati S. Cohen va T. A. Wills (1985) tomonidan ishlab chiqilgan "Stress-buffering hypothesis" orqali ilmiy asoslangan. Mazkur nazariyaga ko'ra, yaqin insonlar tomonidan ko'rsatiladigan emotsional va instrumental yordam stressning salbiy ta'sirini kamaytiradi hamda psixologik farovonlikni saqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tug'ruqdan keyingi davr kabi yuqori emotsional zo'riqish kuzatiladigan bosqichlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim himoya omili hisoblanadi ^[2].

Onalikning psixologik mazmunini izohlashda D. Stern (1995)ning onalik identifikatsiyasi konsepsiyasiga murojaat qilindi. Muallifning fikricha, bola tug'ilishi bilan ayolning psixologik o'zligi qayta shakllanadi, yangi ijtimoiy rolini qabul qilish va unga muvaffaqiyatli moslashish esa oilaviy qo'llab-quvvatlash hamda ijobiy ijtimoiy munosabatlarga bevosita bog'liqdir ^[3].

Empirik ma'lumotlar Spearmanning rang korrelyatsiyasi yordamida tahlil qilindi. Mazkur statistik usul ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va onalikdan mamnunlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikning yo'nalishi hamda kuchini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tug'ruqdan keyingi davrda onalikdan mamnunlik ayolning psixologik moslashuvi, ona rolini qabul qilishi va bola bilan sog'lom emotsional munosabatlarni shakllantirishning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ushbu jara-yonning muvaffaqiyatli kechishida oilaviy muhit, yaqin insonlar tomonidan ko'rsatiladigan emotsional va instrumental yordam muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan tadqiqotda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilishning ko'p o'lchovli shkalasi hamda E. I. Zaxarovaning "Onalikdan mamnunlik" so'rovnomasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik Spearman korrelyatsiya mezonini yordamida tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval: Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilishning ko'p o'lchovli shkalasi va E. I. Zaxarovaning "Onalikdan mamnunlik" so'rovnomasi korrelyatsion aloqadorlik natijalari, Spearman mezonini asosida, n = 334

Shkalalar	Oilaviy yordam	Do'stlardan yordam	Boshqa muhim kishilarning yordami	Umumiy ko'rsatkich
Bola bilan munosabatlardan qoniqish	0,220	0,321	0,324	0,064
Bolani rivojlanishidagi muvaffaqiyatlardan o'z faoliyatining natijasi sifatida qoniqish	0,041	0,071	0,185	-0,047
Onalik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarayotganidan qoniqish	0,232	0,257	0,311	0,029
Onalik roli bilan bog'liq qoniqish	0,225	0,311	0,319	-0,017
Onalik tufayli yaqin atrofdagilar bilan munosabatlardan qoniqish	0,125	0,235	0,350	0,058
Umumiy ko'rsatkich	-0,060	-0,133	0,020	-0,319

Izoh: $p < 0,01$; $p < 0,05$



Tahlil natijalari ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aksariyat komponentlari bilan onalikdan mamnunlikning alohida ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ishonchli korrelyatsion bog'liqliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, bola bilan munosabatlardan qoniqish oilaviy yordam ($r = 0,220$; $p < 0,01$), do'stlardan yordam ($r = 0,321$; $p < 0,01$) hamda boshqa muhim kishilarning yordami ($r = 0,324$; $p < 0,01$) bilan ijobiy bog'liqlikka ega bo'ldi. Bu natijalar ayol tomonidan his etilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kuchaygan sari uning bola bilan o'zaro munosabatlardan mamnunligi ham ortishini ko'rsatadi.

Bolaning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlardan o'z faoliyatining natijasi sifatida qoniqish faqat boshqa muhim kishilarning yordami bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlikni namoyon etdi ($r = 0,185$; $p < 0,01$). Oilaviy va do'stlar tomonidan ko'rsatiladigan yordam bilan esa ishonchli bog'liqlik aniqlanmadi ($p > 0,05$).

Onalik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarayotganidan qoniqish oilaviy yordam ($r = 0,232$; $p < 0,01$), do'stlardan yordam ($r = 0,257$; $p < 0,01$) hamda boshqa muhim kishilarning yordami ($r = 0,311$; $p < 0,01$) bilan musbat bog'liqlikka ega bo'ldi. Xuddi shunday, onalik roli bilan bog'liq qoniqish ham mazkur uchala qo'llab-quvvatlash manbai bilan ijobiy korrelyatsiyani namoyon etdi ($r = 0,225-0,319$; $p < 0,01$).

Onalik tufayli yaqin atrofdagilar bilan munosabatlardan qoniqish oilaviy yordam ($r = 0,125$; $p < 0,05$), do'stlardan yordam ($r = 0,235$; $p < 0,01$) hamda, ayniqsa, boshqa muhim kishilarning yordami ($r = 0,350$; $p < 0,01$) bilan bog'liq bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar orasida eng kuchli korrelyatsiya aynan boshqa muhim kishilar tomonidan ko'rsatiladigan yordamda kuzatildi.

Umuman olganda, natijalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning turli manbalari onalikdan mamnunlikning alohida jihatlarini mustahkamlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, do'stlar va boshqa muhim shaxslarning qo'llab-quvvatlashi ayollarning bola bilan munosabatlari, onalik rolini qabul qilishi hamda onalik vazifalarini bajarishdan qoniqishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tug'ruqdan keyingi davr ayollarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va onalikdan mamnunlik o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Spearman korrelyatsion tahlili oilaviy yordam, do'stlar tomonidan ko'rsatiladigan yordam hamda boshqa muhim shaxslarning qo'llab-quvvatlashi onalikdan mamnunlikning asosiy tarkibiy qismlari, jumladan, bola bilan munosabatlardan qoniqish, onalik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, onalik rolini qabul qilish va yaqinlar bilan munosabatlardan mamnunlik bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanligini aniqladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayniqsa, boshqa muhim shaxslarning qo'llab-quvvatlashi onalikdan mamnunlikning bir qator ko'rsatkichlari bilan nisbatan kuchliroq korrelyatsiyani namoyon etdi. Bu esa tug'ruqdan keyingi davrda ayolning psixologik moslashuvi faqat oilaviy yordam bilan emas, balki kengroq ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar tug'ruqdan keyingi davr ayollarini psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda oila a'zolari, turmush o'rtog'i va yaqin ijtimoiy muhitni faol jalb etish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari perinatal psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish, onalikka moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash hamda ayollarning psixologik farovonligini oshirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy-psixologik dasturlarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zimet, G. D., Dahlem, N. W., Zimet, S. G., & Farley, G. K. (1988). The Multidimensional Scale of Perceived Social Support. *Journal of Personality Assessment*, 52(1), 30-41. https://doi.org/10.1207/s15327752jpa5201_2
2. Cohen, S., & Wills, T. A. (1985). Stress, social support, and the buffering hypothesis. *Psychological Bulletin*, 98(2), 310-357. <https://doi.org/10.1037/0033-2909.98.2.310>
3. Stern, D. N. (1995). *The Motherhood Constellation: A Unified View of Parent-Infant Psychotherapy*. New York: Basic Books.
4. Захарова Е. И. (2012). Удовлетворенность материнством: диагностика и психологические особенности. *Психологическая наука и образование*, № 4, 88-97.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.